

**JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SHAXS VA DAVLAT
MUNOSABATLARINING UYG‘UNLIGI**

*Ilmiy raxbar: **Patiyev X.I***

Normurodova Sokina Shokir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari

va huquq talimi yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jamiyat a‘zolarining samarali muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish masalalarining dolzarbligi yuzasidan fikrlar yuritilgan bo‘lib, bugungi zamonaviylashgan davrda insonning hayoti va faoliyatiga, uning emotsional-hissiy tajribasiga bog‘liq bolgan yuksak ongli, madaniyatli, ko‘pni ko‘rgan shaxsning boshqalarni to‘g‘ri tushunishi, ularning mavqeida tura olishi va samarali muloqotni amalga oshirish yollari maqolada izohlanadi. Maqola pedagogik kompetentlikning nazariy va amaliy jihatdan o‘ziga xosliklarini yoritib berishga xizmat qilgan.*

Kalit so‘zi: *muloqot, hamkorlik, his qilish, sezish, hamdardlik, qayg‘udoshlik, quvonchga oshnolik, paralingvisti, noverbal omillar, iste‘dod, savodxonlik.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida jamiyat va davlat hayotini modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlar izchil davom etmoqda. Mamlakat o‘z xalqi farovon hayotini ta‘minlash maqsadida har qanday samarasiz tizim va tuzumdan voz kechib, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatchilik sari intilmoqda. Bunday vaziyatda davlat va jamiyat tuzumining huquqiy asoslarini tashkil etuvchi konstitutsiyaning o‘rni va ahamiyati yanada ortadi.

Jamiyatimizning rivojlanishi yuksak aqliy potensialga ega bo‘lgan jamiyatimiz a‘zolarining ongi, bilimi uning muloqot darajasining muvaffaqiyatli amalga oshirishda ijtimoiy tarbiyani, ilm va ma‘rifat berishni, shuningdek Odamlarning his-tuyg‘ularini qay darajada aks ettirishi, boshqalarni idrok etishi va



tushunishi va ular orqali o'zlari ko'p jihatdan muloqot jarayonini, sheriklar o'rtasidagi munosabatlarni va birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish usullarini belgilaydi.

Muloqot jarayonida odamlar bir-birlari bilan ma'lumot almashib, o'zaro ta'sir etibgina qolmay, balki bir-birlarini to'g'riroq va aniqroq anglashga, tushunishga va idrok etishga harakat qiladilar. Muloqotning samaradorligi sub'yekt-sub'yekt munosabatlariga kirishayotgan kishilarning o'zligini anglash darajasiga bog'liq. Ya'ni, o'zligini chuqurroq anglagan insonlarda muloqot samaradorligi yuqori bo'ladi.

Jamiyatning ma'naviy hayotini boshqarishda muloqotning oldiga qo'yilgan maqsad esa-ilm-ma'rifatli, ma'daniyatli har tomonlama kamol topgan, yuksak darajadagi pok va axloqli kishilarni tarbiyalab yetishtirishdan iborat. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, muloqot inson taraqqiyotining har qanday bosqichida jamiyatga xos bo'lgan ichki xususiyat bo'lib, bu xususiyat umumiy xususiyatga ega bo'lgani holda kishilarning ijtimoiy jamoatchilik mehnatidan, turmush va mehnat jarayonida o'zaro aloqada bo'lish ma'naviy faoliyatining mahsulidir. Chunki muloqot odam emotsional holatlarini belgilab beruvchisi hisoblanadi. Insoniy hissiyotlarning barchasi odamlarning muloqoti sharoitida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok etishlari ularning perseptiv, ya'ni hissiy bilish (idrok sezish) sohasiga aloqador bo'lsa, bir-birlarini tushunishi ularning tafakkur sohalariga bevosita bog'liq murakkab jarayondir. Boshqa odamni to'g'ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, unda empatiya - birovlarining his kechinmalarini tushuna olish qobiliyati



rivojlangan bo'лади. Empatiya shaxslararo kechadigan muloqotning fenomeni sifatida u bevosita odamlar orasidagi o'zaro munosabatlarni boshqaradi, shaxsning ahloqiy fazilatlarini belgilaydi.

Empatiya o'zaro ta'sir etish jarayonida qadriyatlar tizimini shakllantiradi, keyinchalik esa shaxsning boshqa odamlarga nisbatan munosabatlaridagi hulq-atvorini aniqlaydi.

Empatiyaning ifodalanishi va uning shakllari (his qilish, sezish, hamdardlik, qayg'udoshlik, quvonchga oshnolik) ko'pincha shaxsning tabiiy (irsiy,genetik) xususiyatlari, jumladan, uning zehniga, iste'dodiga, talantiga, tarbiya (muhit) shart-sharoitlariga, insonning hayot va faoliyatiga, uning emotsional-hissiy tajribasiga bog'liq. Yuksak ongli, madaniyatli, "ko'pni ko'rgan"shaxsgina boshqalarni to'g'ri tushunishi, ularning mavqeida tura olishi va samarali muloqotni amalga oshirishi mumkin.

Xuddi shu bois empatiya o'zaro ta'sir o'tkazish, tushunish jarayonida muomalada vujudga keladi, kechadi, shakllanadi, takomillashadi.

Ma'lumki, suhbatlashayotgan odamlarning biri gapiradi, ikkinchisi esa tinglaydi va eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni bo'lgan tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi "Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45 % i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35 - 40 % oylik maoshlarini odamlarni "tinglaganlari" uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan. Shuningdek, nemis faylasufi A.Shopengauer "Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang"



deb yozgan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan muloqot qilishni uzishingiz mumkin.

O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi? Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz- u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa - bu bizning o'z fikr - o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida xayolimiz boshqa yerda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ko'p bo'lib, biz asosan kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz, ya'ni, so'zma-so'z qaytarish va boshqacha talqin etish. Birinchisi, suhbatdosh so'zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo'llab - quvvatlashni bildiradi.

Xulosa. Demak, aytishimiz mumkinki, suhbat jarayonida gapirayotgan shaxs yetakchi degan tasavvur unchalik to'g'ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug'diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o'zi. Tinglayotgan odam ma'nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o'zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olibulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri - insonlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o'rinli foydalanishga o'rgatishdir.

Demak, shaxslararo idrok jarayoni pedagogik jihatdan murakkab bo'lib, unda muloqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham ob'yekti, ham sub'yekti bo'lib, faoliyat ko'rsatadilar. Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining pedagogik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi. Shuning



uchun ham bugungi kunda samarali muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida o'rgatishga katta e'tibor qaratilmogi zarurdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, samarali muloqot olib borishda shaxslararo idrok jarayoni pedagogic jihatdan murakkab bo'lib, unda muloqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham ob'yekti, ham sub'yekti bo'lib, faoliyat ko'rsatadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya T. Fan va texnologiya. 2012. 65.
2. Nazarov Muhiddin «Muloqot madaniyati haqida». // Muloqot. 2000 y №6. B 23.
3. Omon Baxtiyor «Notiqlik - qadimiy san'at». // Jamiyat va boshqaruv. 2003 y №2.
4. Hasanov S., Himmatov F. «Voizlik barqarorlik belgisidir». // Qonun himoyasida. 2001 y №10. B 25.
5. Xamrayev, S. (2024). FALSAFIY YONDASHUVNI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR. TAMADDUN NURI JURNALI, 6(57), 88-90.
6. Sardorbek Sharafutdinovich Xamrayev (2024). TURIZM ETIKASINING JAMIYATDAGI IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI. Academic research in educational sciences, 5NUU Conference (2), 753-758.
7. Sharafutdinovich, K. S. . (2024). THE CONCEPT OF ECOLOGICAL TOURISM AND ITS SOCIO-PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY.
8. Патиев, Х. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(11).
9. Ikromovich, P. X. (2023). Jadid ma'rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shart-sharoit va obektiv zaruriyat. Finland International Scientific Journal of Education. *Social Science & Humanities*, 11(3), 167-179.



10. Xoldor, P. (2024). JADIDCHILIK G 'OYALARI TARG 'IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 281-285.
11. PATIYEV, X. (2024). JADID MA'RIFATPARVARLARI QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TASNIFI. *News of the NUUz*, 1(1.10. 1), 166-168.
12. Ikromovich, P.K. JADIDIZM HARAKATINING MOHIYINING IJTIMOIIY-FALSAFIY YONDORISHI. *Amerika ijtimoiy fanlar va insoniyat tadqiqotlari jurnali*, 4 (11), 175-181.
13. Ismoilov, Najmiddin Boysoatovich (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM VA ILM SOHALARI RIVOJLANISHNING YANGI DAVRIDAGI MUHIM ASOSLARI. *International scientific journal of Biruni*, 2 (1), 81-88.
14. Ismoilov, Najmiddin Boysoatovich (2022). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA KONFESSIYALARARO HAMKORLIKNI TA'MINLASH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (12), 1116-1121.
15. <http://besonus.narod.ra/ritorika.htm>.